

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari

N.O.Safarova,

Buxoro davlat pedagogika instituti professori.

R.J. Jalolova,

Buxoro davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola xalq og'izaki ijodining bolalar tarbiyasidagi o'rni, bolalarni xalq ijodi namunalari orqali tarbiyaning ahamiyati, ma'naviy salohiyatning oshishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'izki ijodi orqali vatanga muhabbatini oshirishi hamda dunyoqarashni kengaytirishi, yaxshi fazilatlar manbai ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xalq og'izaki ijodi, rivojlanish, mustaqil fikr, ma'naviy salohiyat, fazilatlar manbai, tarbiya, milliy qadriyat, madaniyat, fikrlash, qobiliyat, madaniy meros, milliy qadriyat.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Darhaqiqat O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berish lozim. O'zbekistonning rivojlanishida har bir shaxsning tarbiyasi muhim sanaladi. Har bir shaxs o'zinini jamiyatning bir bo'lagiman, men tufayli davlatimiz rivojlanadi, jamiyatda o'z o'rnim bor deb harkat qilgandagina rivojlanish salohiyati o'sadi. Buni esa bolalarni tarbiyasidan o'zini tanitishdan ya'ni milliylikdan boshlash kerak kichkinaligida oiladagi, bog'chadagi, o'rnidan. Albatta bolarga buni singdirishda "xalq og'izaki ijodi" muhim sanaladi.

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand nasihatlarini, el e'zozlagan, qadirlagan necha ming yillardan beri el ardog'ida bo'lgan inson bo'lishning talab qoidalari hamda Alpomish, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi mart yurt farzandlarining qilgan jasoratlari va milliy

urf-odatlarimiz o‘z ifodasini topgan. Xalq o‘g‘izaki ijodidan foydalangan holda ta'lim berish fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Har bir bolaga Vatanni sev qadrla deb ming marta aytsak u o‘z-o‘zidan vatani sevib qolmaydi biz ularga vatan nima ekanligini uning qadr-qimmatini biz uchun aziz ekanligini shu vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrash uchun joni fido etgan mart vatan fidoyilari hayotini hikoya qilib va bizgacha yetib kelgan merosni omonotga hiyonat qilmagan holda kelgusi avlodga yetkazishimiz zarurligini vatanimizni asrashimiz kerak ekanligini anglatganimizdagina bola vatani sevadi. Bolaga qanchalik tushuntira olish boshlang‘ich sinf o‘qiyuvchisining mahoratiga va xalq o‘g‘izaki ijodidan foydalanishiga bog‘liq.

Bolalarga aytib borilgan xalq og‘izaki ijodi namunalari avvalo o‘zini tanitadi ya‘ni qanday urf-odatlari bor joyda yashayotganini anglaydi, ularni keng fikrlashga, tasavvur qilishga, yaxshilik qilishga undaydi va ma‘naviy salohiyatining o‘stiradi hamda tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Xalq og‘zaki ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak u turli-tuman adabiy tur va janrlarda namoyon bo‘lib kelayotgan kishilik jamiyati tarixida kop vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega. So‘z san‘ati hisoblanadi. U hamma zamonlarda ham oz ijodkori bolgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning oz-ozinigina emas, balki bolalarning ham ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarmoqda. Xalq og‘izaki ijodi asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqalanib kelayotgan namunalar.

Ular ustoz-shogird ananalarini ham rivojlantirish. Xalq og‘zaki namunalari bo‘lgan qo‘shiq, lapar, alla, ertak, doston aytish, topishmoq va hakoza yo‘nalishlari O‘zbekistonning yillar davomida sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlarni namoyish etib kelibmoqda. Xalq og‘izaki ijodi inson tarbiyasida muhim o‘rin tutar ekan ularni yanada keyin o‘rganmog‘imiz va ularni ommaga namoyish etmog‘imiz zarur.

Boshlang‘ich sinf 1-2-3-4-sinf o‘qish savodxonligi darsliklari o‘rganib chiqildi.

1-sinf o‘qish savodxonligi darsligi:

1- Aziz Vatan, jonajon Vatan bo‘limida; maqollar, tez aytishlar berilgan

2- Qoyilman qish ishiga, zavq beradi kishiga bo‘limida; rebuslar, bo‘ladi bo‘lmaydi o‘yini, topishmoqlar, maqollar berilgan



3- Kitob bilim bulog'i - O'quvchining o'rtog'i bo'limida; topishmoqlar, maqollar berilgan

4- Bahor keldi, keladi Navro'z; tez aytish, topishmoq, “Bahorning taomi”ertagi, maqollar berilgan.

5- U-kim, Bu-nima bo'limida topishmoqlar, maqollar berilgan.

6- Xalq og'zaki ijodi - behisob xislat koni bo'limida “Ur to'qmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Oltin tarvuz”, “Shakardan shirin”, “Aql vq boylik” ertaklari, “Boychechak” qo'shig'i, maqollar, topishmoqlar berilgan

7- Qanday yaxshi, bolalar Go'zal xulq, orastalik bo'limida; “Maqtanchoq quyvon” ertagi, “Sher bilan durroj”, topishmoqlar va maqollar berilgan.

8-Yoz-o'tadi soz bo'limida; topishmoq, maqol, tez aytishlar berilgan.

2-sinf darsligi.

1.Maqollar

2. Hunarning foydasi rivoyat

3.maqollar.213

4. Yaxshilik ortidan yaxshilik keladi ertagi

5. Zumrad va Qimmat

6.O'zbek xalq qo'shiqlari: oyijon,kulcha,kim oladi shuginani,allaqo'shiq

7.Navbat bilan javob ber o'yini

8. Tez aytish maqollar tarzida berilgan.

3-Sinf darsligi.

1.Tulki bilan laylak ertagi

2.Dangasa ertagi

3.To'ng'oz farzandining domoligi ertagi.

4.maqollar

5.Alpomishning bolaligi

6.Qarg'avoy o'zbek xalq ertagi

7.Dorbozlik san'ati YUNESKO rohatidan

8.Tulki bilan sher ertagi

4-sinf darsligi.

1.Ma'naviyat - qalb quyoshi bo'limi odamdan nima qoladi? dostonan parcha

2. Eng ulug' fazilat, Chaqimchiga mukofat, omonatga xiyonat, “ikki saxiy” ertak “Qo'zichoq” masal



3. Xalq o‘g‘izaki ijodi bo‘limi: Boychechak, Oftob chiqdi olamga, Xo‘p hayda qo‘shiqlari

4. Ilim afzal, davlat ko‘zacha bilan tulki, ochko‘z boy, hiylagarning jazosi hunarsiz kishi o‘limga yaqin, ziyrak uch yigit ertak

5. Adabiy ertaklar bo‘limi: Bo‘ring tabib bo‘lganligi haqida, baqa bilan taqa, laqma it ertaklari

6. Maqollar

7. Topishmoqlar

8. Pahlovan shoir rivoyat

9. Alisherning yoshligi qissa

10. Saxiy, yolg‘onning izza bo‘lishi rivoyat

11. Bahor ta‘rifida rivoyat

12. Navro‘z bahor bayrami, bayram urf-odatlari

13. Yaxshidan bog‘ qoladi, Tumaris, Najmiddin Kubro, Sulton Mahmud va Beruniy, Tanbeh, Hidi tilimi va mazzasidan rivoyat

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilolarining o‘qish ko‘nikmasini egallash bilan bir qatorda adabiy rivojlanish vazifasi ham turadi. Folklor materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Maqol va matallar tilni boyitadi, ta‘sirchanlikni va aniqlikni beradi. Maqollar aniqlikni fikrning tugalikni ifodalaydi va maqollarda soha nisbatan ta‘sir kuchli bo‘ladi. Maqollarni gramatik qoidalar asosida tahlil qilib o‘rganish bilan birgalikda axloq fazilatlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda maqol va matallar ustida ishlash muhim o‘rin tutadi hamda o‘quvchining fikrlashini va nuqtini rivojlantiradi. Tez aytishlar o‘quvchining nutqidagi nuqsonlarini to‘g‘irlashga, chiroyli va ravon so‘zlashga yordam beradi.

Topishmoqlar o‘quvchini zulkolikka, izlanuvchanlikka, topqirlikka undaydi, o‘quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini, manbalar asosida o‘zi hulosa chiqarishni o‘zrganishda muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, xalq madaniyati bilan tanishtirishni boshlang‘ich sinfdan boshlash kerak degan xulosaga kelsak albatta masadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bolaning asosiy tushunchalari va xulq atvori bolaligidan paydo bo‘ladi. Madaniy meros bolaning dunyo qarashini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005
2. Safarova N.O. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi. "O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.



Research Science and Innovation House

